

**AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMI
TAKOMILLASHTIRISH IQTISODIYOTNING ASOSIY MEZONIDIR!**

Mehrinoz Shomurotova

Bank Moliya akademiya tinglovchii magstri.

Annotatsiya Mazkur tezisda aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimi takomillashtirish iqtisodiyotning mezoni va korxonalarining rivojlanishi ko'p jihatdan amalga oshirilgan islohotlar iqtisodiyotining taraqqiyoti, shakllangan iqtisodiy tizim shart-sharoitlariga bog'liqligi yoritilgan

Kalit so'zlar: Aksiya, aksiyadorlik jamiyati, korporativ boshqaruv, korporativ sektor, iqtisodiy mexanizm, shaffoflik.

Hozirgi kunda milliy aksiyadorlik jamiyatlarida shakllangan korporativ boshqaruv respublikamizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlarning turli bosqichlarida rivojlanib bormoqda. Lekin ushbu rivojlanish, jahon amaliyotida korporativ boshqaruvning evolyutsion taraqqiyoti bilan qiyoslanganda, qisqa davrda sifat jihatidan takomillashib borganligini kuzatish mumkin.

Mamlakatimizda olib borilgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar davrida aksiyadorlik jamiyatlari korporativ boshqaruv mexanizmining kompleks samaradorligini oshirishga va jamiyat aksiyadorlariga individual yondashuvlar asosida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv mexanizmlari tizimi yetarli darajada tashkil etilmaganligi sababli korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati va investitsiyalarni jalb etish darajasi pastligicha qolmoqda. Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan "Ko'plab kompaniyalarimiz moliyaviy hisobot yuritish, ichki nazorat va audit o'tkazish, boshqaruvga mustaqil a'zolari kiritish kabi masalalarda oqsayotgani sababli kompaniyalarda korporativ boshqaruvni keng joriy etish" kerakligi ta'kidlab o'tildi.

Korporativ boshqaruvning shakllanishi va rivojlanishi ko'p jihatdan amalga oshirilgan islohotlar natijasida bozor iqtisodiyotining taraqqiyoti, shakllangan iqtisodiy tizim shart-sharoitlariga bog'liq bo'lib, undagi institutsional birliklar o'zaro munosabatlarning iqtisodiy mexanizmi asos hisoblanadi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimining asosiy jihatlari sifatida korxonaning barcha ishtirokchilari o'rtasidagi ijtimoiy hamkorlik muhitini shakllantirish va ular o'rtasida ishonchni oshirish maqsadida

korporativ boshqaruvda xulq tamoyilllariga rioya qilish va shaffoflikka asoslangan tizimli boshqarishga o'tish yo'llarini ishlab chiqilmoqda. Korporativ boshqaruv mexanizmlari tizimi rivojlanishining bir necha ming yillik tarixini hisobga olgan holda hozirgi kundagi korporativ boshqaruv tizimining shakllanish jarayoni o'rganish hamda sheriklik munosabatlarida ishtirokchilar o'rtasida umumiy maqsad va mulkka egalik xissining vujudga kelishi, ularning bir maqsad ortida birlashishi, sherikchilik asosida erishilgan natijadan manfaatdorlik va sheriklarning har birining vazifasi hamda bajargan amallariga qarab yakuniy natijani o'zaro taqsimlash lozim.

Xususan, bugungi kunda korporativ boshqaruv mexanizmi tizimi sifatini oshirishni rivojlantirishda har bir aksiyadorlik jamiyatining quyidagi omillari muhim ahamiyatga ega:

- aksiyalarga egalik qilishi;
- moliyaviy tizimi va manbalari;
- mavjud bozor munosabatlari;
- davlatning korxonalar boshqaruviga aralashuv darajasi;
- makroiqtisodiy barqarorlik hamda iqtisodiy islohotlarning davomiyligi va

jadalligi bilan uzviy bog'liqlikda shakllanadi. Yuqorida sanab o'tilgan omillar aksiyadorlik jamiyati tizimining yaralishiga bilvosita ta'sir qiladi.

Korporativ boshqaruv tizimi sifatini oshirish mexanizmi ishlab chiqarish jamiyat korxonalarining asosiy poydevori bo'lganligi sababli, ularni mulkchiligidan qat'iy korxonalar va aholi mablag'laridan foydalanishni rivojlantirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Shundagina korxonalar jamoasini manfaatdorligi oshadi va uning salohiyati kuchayib boradi. Bu korxonalar va aholi mablag'laridan foydalanishni kuchaytirishning bir tomoni bo'lsa, ikkinchi tomoni korxonalar aksiyalariga egalik ortib boradi. Bunda dividendni asosiy qismi korxonalar jamoasida qoladi. Tijorat banklarida investitsiya faoliyatini rivojlantirish, ulardan foydalanish samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.